

**XALQARO QISHLOQ XO‘JALIGI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.08/2025.27.12.I.15.01 RAQAMLI ILMIY
KENGASH**

**OZIQ-OVQAT VA QISHLOQ XO‘JALIGI SOHASIDA STRATEGIK
RIVOJLANISH VA TADQIQOTLAR XALQARO MARKAZI**

MADIYEV SHAXZOD SHODMON O‘G‘LI

**QISHLOQ XO‘JALIGI TEXNIK SALOHIYATINING BUG‘DOY HOSILIGA
TA‘SIRINI IQTISODIY BAHOLASH**

08.00.04 – Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Content of the Dissertation Abstract of Doctor of Philosophy (PhD)

Madiyev Shaxzod Shodmon o‘g‘li

Qishloq xo‘jaligi texnik salohiyatining bug‘doy hosiliga ta‘sirini iqtisodiy baholash 3

Madiev Shakhzod Shodmon ugli

Economic assessment of the impact of agricultural technical potential on wheat yield 25

Мадиев Шахзод Шодмон угли

Экономическая оценка влияния технического потенциала сельского хозяйства на урожай пшеницы 47

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works 51

**XALQARO QISHLOQ XO‘JALIGI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.08/2025.27.12.I.15.01 RAQAMLI ILMIY
KENGASH**

**OZIQ-OVQAT VA QISHLOQ XO‘JALIGI SOHASIDA STRATEGIK
RIVOJLANISH VA TADQIQOTLAR XALQARO MARKAZI**

MADIYEV SHAXZOD SHODMON O‘G‘LI

**QISHLOQ XO‘JALIGI TEXNIK SALOHIYATINING BUG‘DOY HOSILIGA
TA‘SIRINI IQTISODIY BAHOLASH**

08.00.04 – Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasida B2025.4.PhD/Iqt5981- raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi sohasida strategik rivojlanish va tadqiqotlar xalqaro markazida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.iau.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Rustamova Iroda Baxramjanovna
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Xamrayeva Sayyora Nasimovna
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Egamberdiyev Behzod Baxodirovich
iqtisodiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot:

Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti

Dissertatsiya himoyasi Xalqaro qishloq xo'jaligi universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.08/2025.27.12.115.01 raqamli Ilmiy Kengashning 2026 yil "6" 10 soat 15³⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 111200 Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy, tel.: +998 55 517-00-71, e-mail: scientificcouncil@iau.uz)


Dissertatsiya bilan Xalqaro qishloq xo'jaligi universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (3 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 111200 Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy, tel.: +998 55 517-00-71, e-mail: scientificcouncil@iau.uz)

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil "22" 09 kuni tarqatiladi.

(2026 yil "22" 09 dagi 11 raqamli reyestr bayonnomasi)


U.R. Nazarkulov,
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
iqtisodiyot fanlari doktori


A.E. Primov,
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
kotibi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha
falsafa doktori, dotsent


M.A. Aminova,
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi,
siyosatshunoslik fanlari doktori



KIRISH

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyo aholisi sonining o'sib borishi, iqtisodiy va ekologik inqirozlarning keskinlashishi sharoitida oziq-ovqatga talabning ortib borishi muammosi dolzarbligicha qolmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT)ning ma'lumotlariga ko'ra, 2050-yilga borib jahon aholisi soni 9,6 mlrd. kishiga yetishi, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishni 60 foizga oshirish zaruratini keltirib chiqaradi¹. Jahon ekin maydonlarining 14 foizini don ekin maydonlari egallaydi². Bugungi kunda dunyo bo'yicha bug'doy yetishtirish yiliga 800 million tonnani tashkil etadi³. 2030-yilga kelib bu ko'rsatkich 850 million tonnaga oshishi kutilmoqda⁴. Oziq-ovqat savdosida don mahsulotlari qariyb 50 foizni tashkil qiladi⁵. Shunga ko'ra, jahon bozorida bug'doy mahsulotiga talab katta.

Jahonda o'rtacha global harorat sanoatdan oldingi davrga nisbatan 0,8 °C dan 1,2 °C gacha ko'tarildi⁶. Iqlim o'zgarishi bo'yicha hukumatlararo komissiya prognozlariga ko'ra, global o'rtacha harorat har o'n yil ichida 0,2 °C gacha ko'tarilishda davom etadi⁷. Bu esa qishloq xo'jaligi ekinlarining o'sish sharoitlariga salbiy ta'sir ko'rsatib, hosildorlikning kamayishi va ishlab chiqarish xavflari ortishiga sabab bo'lmoqda. Dunyodagi global iqlim o'zgarishlarining qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga salbiy ta'sirlarini oldini olish va unga moslashishning samarali usullaridan biri qishloq xo'jaligida texnikalardan foydalanish darajasini oshirish orqali amalga oshiriladi.

Ma'lumki, mamlakatimiz oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda donli ekinlar, xususan, bug'doyning o'rni yuqoridir. Bug'doy O'zbekistonda oziq-ovqat kaloriyasining 52 foizdan ortig'ini ta'minlaydi⁸. Shu bois, mustaqillikning dastlabki yillaridan ushbu tarmoqni barqaror rivojlantirish doirasida muhim tarkibiy islohotlar olib borildi va o'z ijobiy natijalarini bermoqda. Ammo, bir tomondan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi asosan sug'orma dehqonchilikka asoslanganligi, ikkinchi tomondan esa suv tanqisligi keskinlashayotganligi, shuningdek "O'zbekistonning 70 foiz yerlari

¹ Food and Agriculture Organization of the United Nations (FAO). Sustainable agricultural mechanization: A framework for Africa [Elektron resurs]. – Rome: FAO, 2016. – URL: <http://www.fao.org/3/c-i6273r.pdf>

² Land statistics 2001–2023. Global, regional and country trends : FAOSTAT Analytical Brief No. 107 / Food and Agriculture Organization of the United Nations. — Rome : FAO, 2025. — URL: <https://www.fao.org/statistics/highlights-archive/highlights-detail/land-statistics-2001-2023>

³ Statistical Yearbook. World Food and Agriculture 2023 / Food and Agriculture Organization of the United Nations. — Rome : FAO, 2023. — URL: <https://openknowledge.fao.org/server/api/core/bitstreams/28cfd24e-81a9-4ebc-b2b5-4095fe5b1dab/content>

⁴ OECD-FAO Agricultural Outlook 2025–2034. Cereals / Organisation for Economic Co-operation and Development, Food and Agriculture Organization of the United Nations. — Paris : OECD Publishing, 2025. — URL: https://www.oecd.org/en/publications/2025/07/oecd-fao-agricultural-outlook-2025-2034_e173f332/full-report/cereals_251d1ece.html

⁵ Cereal Supply and Demand Brief / Food and Agriculture Organization of the United Nations. — Rome : FAO, 2026. — URL: <https://www.fao.org/worldfoodsituation/csdb/en>

⁶ Masson-Delmotte, V. et al. Climate Change 2021: The Physical Science Basis. Contribution of Working Group I to the Sixth Assessment Report of the IPCC. Cambridge University Press, 2021. URL: <https://www.ipcc.ch/report/ar6/wg1/>

⁷ IPCC. Climate Change 2021: The Physical Science Basis. Contribution of Working Group I to the Sixth Assessment Report of the Intergovernmental Panel on Climate Change. – Cambridge : Cambridge University Press, 2021. – 2391 p. – DOI: 10.1017/9781009157896.

⁸ Chabot P., Tondel F. A regional view of wheat markets and food security in Central Asia. – Washington, DC: United States Agency for International Development; Famine Early Warning Systems Network (FEWS NET); World Food Programme, 2011.

qurg'oqchil maydonlardan iborat"⁹ligi kelajakda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining iqlim o'zgarishiga ta'sirchanligi yuqori ehtimollikda bo'lishligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, hozirda respublikamiz qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining barcha tarmoqlarini texnika vositalari bilan ta'minlanish darajasi nisbatan pastligicha qolmoqda. Bugungi kunda qishloq xo'jaligida mexanizatsiya darajasi 81 foizni tashkil etmoqda¹⁰. Bunday sharoitda, ishlab chiqarishda mavjud texnika vositalaridan samarali foydalanish mahsulot yetishtirish bo'yicha texnologik kartalarda ko'zda tutilgan barcha agrotexnik tadbirlarni o'z muddatida, sifatli bajarilishiga amaliy yordam ko'rsatadi. Shu bois, qishloq xo'jaligini texnik salohiyatidan foydalanishning nazariy, uslubiy va amaliy asoslarini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish hozirgi kunda dolzarb ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5853-son Farmoni, 2023-yil 29-martdagi "Agrar sektorni zamonaviy qishloq xo'jaligi texnikalari bilan ta'minlashni rag'batlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-103-sonli, 2024-yil 12-dekabrda "Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash darajasini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-431-sonli, 2026-yil 13-martdagi "Agrar sektorni zamonaviy qishloq xo'jaligi texnikalari bilan ta'minlashning navbatdagi chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-97-sonli qarorlari va mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika ilm-fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy hamda madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Qishloq xo'jaligida texnika vositalaridan samarali foydalanish, qishloq xo'jaligi texnik salohiyatining ekinlar yetishtirishga ta'sirini iqtisodiy baholash, ishlab chiqarish hajmlarini kengaytirish va rivojlantirishning metodologik jihatlar va amaliyoti ko'plab xorijlik olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Agrar sektor texnik salohiyatini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari A.K. Tmenova, G.A. Iovlev va N.A. Kreymer, texnik salohiyatdan foydalanish samaradorligi A.N. Stavtsev va A.N. Kortyaev, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining texnik bazasini rivojlantirish va yangilash masalalari Yu.S. Tsen'ch hamda V.I. Dragaytsev¹¹ ilmiy ishlarida tadqiq etilgan bo'lsa, qishloq

⁹ Daryo.uz. – 2022. – URL: <https://daryo.uz/2022/06/10/ozbekistonning-70-foiz-yerlari-qurg'oqchil-maydonlardan-iborat-ormon-xo'jaligi-davlat-qomitasi>

¹⁰ Qishloq xo'jaligida texnikalar parki yangilanib, raqamli yechimlar keng joriy etiladi [Elektron resurs] // Prezident.uz. – 2026. – URL: <https://president.uz/oz/lists/view/8962>

¹¹ Тменова А.К. Организационно-экономический механизм развития технического потенциала аграрного сектора: дис. ... канд. экон. наук: 08.00.05. – Владикавказ, 2010. – 161 с.; Иовлев, Г.А. Технический потенциал аграрного сектора экономики: теоретические и практические аспекты // Аграрный вестник Урала. – 2016. – № 5 (147). – С. 72–78.; Креймер Н.А. Экономический механизм восстановления и развития технического потенциала сельскохозяйственных предприятий: по материалам Краснодарского края: дис. ... канд. экон. наук. – Краснодар, 2004. – 208 с.; Ставцев А.Н. Экономическая эффективность использования технического потенциала в молочном скотоводстве: дис. ... канд. экон. наук. – Орел, 2011. – 177 с.; Кортяев А.Н. Экономическая эффективность

xo'jaligi tashkilotlarining texnik salohiyatini optimallashtirish masalalari M.V. Lisenko va A.V. Nemchenko, tarmoqda texnik servisni tashkil etish hamda texnika vositalaridan foydalanishning iqtisodiy jihatlarida esa A.K. Subaeva¹² ilmiy ishlarida yoritilgan.

Shuningdek, ekonometrik modellar, xususan, SEM modeli asosida ishlab chiqarishda omillar ta'sirini baholash bo'yicha qator ishlar R.H. Hoyle, B.M. Byrne, J. Hair, G. Hult, C. Ringle, M. Sarstedt, J.M. Wooldridge¹³ kabi olimlarning ilmiy izlanishlarida tadqiq qilingan.

Mamlakatimizda ham bu sohani rivojlantirish va tubdan isloh qilish uchun O'zbekiston misolida bug'doy hosiliga omillar ta'sirini o'rganishda va iqtisodiy samaradorligini oshirishda agrar iqtisodchi olimlar tomonidan bir qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. Xususan, agrar iqtisodchi olimlardan R.X.Xusanov, U.P.Umrzoqov, K.A.Chariyev, N.S.Xushmatov, Z.Z.Yusupov¹⁴ va boshqalarning ilmiy tadqiqot ishlarida o'z aksini topgan.

Mazkur olimlarning tadqiqot ishlarida ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishga qaratilganligini qayd qilgan holda shuni alohida ta'kidlash zarurki, qishloq xo'jaligi texnik salohiyati tushunchasi mohiyatini chuqurroq tahlil qilish hamda uning ishlab chiqarish jarayonida ta'sirlarini iqtisodiy baholash yetarli darajada tadqiq etilmagan. Shu boisdan, qishloq xo'jaligida texnik salohiyatning ishlab chiqarish hajmiga ta'sirini baholash kabi yuqorida qayd etilgan holatlar va ilmiy muammolar iqtisodiy adabiyotlarda yetarlicha tadqiq etilmaganligi, ilmiy va amaliy ahamiyatga ega ekanligi tadqiqot mavzusi sifatida tanlanishiga asos bo'ldi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi bilan bog'liqligi. Dissertatsiya mavzusi

использования технического потенциала и пути ее повышения: на примере Республики Северная Осетия – Алания: дис. ... канд. экон. наук. – Москва, 2006. – 153 с.; Ценч, Ю.С. Научно-технический потенциал как главный фактор развития механизации сельского хозяйства // Сельскохозяйственные машины и технологии. – 2022. – Т. 16, № 2. – С. 4–13. – DOI: 10.22314/2073-7629-2022-16-2-4-13.; Драгайцев В.И. Организационно-экономический механизм обновления технической базы сельского хозяйства // Социально-экономические преобразования в аграрном секторе России: итоги и перспективы. – Москва: ГНУ ВНИИЭСХ, 2005.

¹² Лысенко М.В., Лысенко Ю.В., Мингалев В.Д. Технический потенциал сельскохозяйственных организаций и его оптимизация // Аграрный вестник Урала. – 2017. – № 12. – С. 24–31.; Немченко, А.В. Оценка технической оснащённости в сельском хозяйстве / А.В. Немченко, Т.А. Дугина, Е.А. Лихолетов // Международный научно-исследовательский журнал. – 2018. – № 9 (75), ч. 2. – С. 52–54. – DOI: 10.23670/IRJ.2018.75.9.034.; Субаева А.К. Экономика и организация технического сервиса (часть I). – Ульяновск: Ульяновская ГСХА, 2011. – 259 с.

¹³ Hoyle R.H. Handbook of structural equation modeling. – New York: Guilford Press, 2012. – 785 p.; Byrne B.M. Structural equation modeling with AMOS: Basic concepts, applications, and programming. – 3rd ed. – New York: Routledge, 2016. – 738 p.; Hair J.F., Hult G.T.M., Ringle C.M., Sarstedt M. A primer on partial least squares structural equation modeling (PLS-SEM). – Thousand Oaks, CA: Sage Publications, 2014. – 307 p.; Wooldridge J.M. Introductory Econometrics: A Modern Approach. – 6th ed. – Boston, MA: Cengage Learning, 2020. – 865 p.

¹⁴ Xusanov R.X., Xamdamov A.N., Rafikov I.E. Qishloq xo'jaligida servis xizmati. Mukobil mashina-traktor parklarini rivojlantirish muammolari.-T.: Yangi asr avlodi, 2001.-125 b.; Umrzoqov.U.P. Iqtisodiyot agrar sektorining resurs salohiyatidan foydalanish samaradorligini oshirish yo'llari (O'zbekiston Respublikasi materiallari asosida): diss... iqtisod fanlari doktori. Toshkent. 2003.-272 b.; Чариев К.А. Формирование и совершенствование механизма эффективного использования ресурсного потенциала сельского хозяйства. Диссертация на соискание ученой степени доктора экономических наук. Ташкент. 1992 г. 374 стр.; Xushmatov N.S., Rustamova I.B. Qishloq xo'jaligida innovatsion faoliyatni yo'lga qo'yishning asosiy yo'nalishlari. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 3, may-iyun, 2019 yil 18-25 bet; Yusupov Z.Z. Qishloq xo'jaligini texnik modernizatsiyalashning tashkiliy-iqtisodiy mehanizmlarini takomillashtirish yollari. Iqtisodiyot fanlari falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan Dissertatsiya. Toshkent. 2021 y. 108 b.

bo'yicha tadqiqot ishlari Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi sohasida strategik rivojlanish va tadqiqotlar xalqaro markazining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi qishloq xo'jaligi texnik salohiyatining bug'doy hosiliga ta'sirini iqtisodiy baholash bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

- qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida texnik salohiyatdan foydalanishning mohiyati va nazariy asoslarini ilmiy jihatdan asoslash;

- qishloq xo'jaligi texnik salohiyatining bug'doy hosiliga ta'sirini iqtisodiy baholash bo'yicha uslubiy yondashuvni ishlab chiqish;

- qishloq xo'jaligi texnik salohiyatini oshirish va texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha xorijiy davlatlar tajribasi va ahamiyatga molik jihatlarini qo'llash;

- bug'doy yetishtirishning hozirgi holatini tahlil qilish va o'zgarishlar dinamikasi hamda rivojlanish tendensiyalarini aniqlash;

- qishloq xo'jaligini texnika vositalari bilan ta'minlanish darajasini tahlil qilish;

- qishloq xo'jaligida texnik salohiyatni oshirishning bug'doy hosiliga ta'sir etuvchi omillar tahlili va ekonometrik model asosida iqtisodiy baholash;

- ekonometrik modellar asosida qishloq xo'jaligida texnik salohiyatni ifodalovchi omillar asosida bug'doy hosilining prognoz ko'rsatkichlarini aniqlash.

Tadqiqot obyekti sifatida Jizzax viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qishloq xo'jaligi subyektlari tanlab olingan. Monografik tadqiqotlar uchun Jizzax viloyati Do'stlik va Arnasoy tumanlarining bug'doy yetishtiruvchi fermer xo'jaliklari tanlab olingan.

Tadqiqot predmetini qishloq xo'jaligi texnik salohiyatining bug'doy hosiliga ta'sirini iqtisodiy baholash bilan bog'liq munosabatlar tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida mantiqiy, taqqoslama tahlil, statistik va ekonometrik modellashtirish, SEM modeli, "KAP Survey" metodi asosidagi so'rovnoma va boshqa usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

- qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishda texnika vositalarining turlari, ularning soni, sifati, eskirish hamda texnika bilan ta'minlanganlik darajasi kabi ko'rsatkichlarni hisobga olgan holda texnika vositalaridan maksimal darajada foydalanish imkoniyatini ifodalovchi "texnik salohiyat" tushunchasining iqtisodiy mazmuni nazariy jihatdan takomillashtirilgan;

- SEM (Structural Equation Modeling) modeli asosida iqtisodiy baholash bo'yicha uslubiy yondashuvga ko'ra, fermer xo'jaliklarida bug'doy hosiliga texnik salohiyatning bevosita ta'siri (direct effect) hamda texnika vositalari bilan ta'minlanish va mehnat resurslaridan foydalanishni ifodalovchi omillarning bilvosita ta'siri (indirect effect) ustuvorligi ilmiy asoslangan;

- Jizzax viloyati fermer xo'jaliklarida bug'doy hosiliga ta'sir etuvchi texnik salohiyatni ifodalovchi omillarning ekonometrik modeli asosida bug'doy hosili o'zgarishining 2031-yilgacha bo'lgan prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan;

- qishloq xo'jaligida texnika vositalarining uzluksiz ishlashini ta'minlash hamda texnik xizmat ko'rsatishni o'z vaqtida tashkil etish maqsadida texnik xizmat ko'rsatuvchi subyektlar hamda fermer xo'jaliklari o'rtasida moliyaviy majburiyatlarni

uchinchi tomon (bank) orqali kafolatli tarzda amalga oshirishga asoslangan eskrou (escrow) tizimini joriy etish taklif etilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

fermer xo'jaliklarida bug'doy hosiliga texnik salohiyatning ta'sirlarini iqtisodiy baholash bo'yicha uslubiy yondashuv ishlab chiqilgan. Natijada, Do'stlik va Arnasoy tumanlari fermer xo'jaliklarida texnik salohiyatning bug'doy hosiliga bevosita ta'siri 0,704 birlikni tashkil etib, hosildorlikka eng kuchli ta'sir ko'rsatuvchi omil ekanligi, texnika vositalari bilan ta'minlanganlik darajasining texnik salohiyatni ifodalashi 0,688 birlikga tengligi, mehnat resurslaridan foydalanish darajasining texnik salohiyatga ta'siri 0,319 birlikni tashkil etishi aniqlangan;

Jizzax viloyati fermer xo'jaliklarida bug'doy hosiliga ta'sir etuvchi texnik salohiyatni ifodalovchi omillarning ekonometrik modeli asosida bug'doy hosili o'zgarishining 2031-yilgacha prognoz ko'rsatkichlari aniqlangan. Natijada, hududda texnik salohiyat darajasining oshib borishi hisobiga bug'doy yalpi hosili hajmi 2024-yilda 479,8 ming tonnadan 2031-yilga kelib 565,2 ming tonnaga, ya'ni 17,8 foizga oshishi prognoz qilingan;

texnik xizmat ko'rsatuvchi subyektlar hamda fermer xo'jaliklari o'rtasida moliyaviy majburiyatlarni uchinchi tomon (bank) orqali kafolatli tarzda amalga oshirishga asoslangan eskrou (escrow) tizimini joriy etish taklif etilgan. Natijada, fermer xo'jaliklarida texnika vositalarining uzluksiz ishlashi ta'minlanadi, texnik xizmat ko'rsatish jarayonlari o'z vaqtida va sifatli amalga oshiriladi, moliyaviy majburiyatlarning bajarilishi kafolatlanib, xizmat ko'rsatuvchi subyektlar bilan o'zaro ishonch mustahkamlanadi hamda agrotexnik tadbirlarning kechikishi natijasida yuzaga keladigan iqtisodiy yo'qotishlar sezilarli darajada qisqaradi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Olib borilgan tadqiqot natijalarining ishonchliligi shu sohadagi mamlakatimiz va dunyo olimlarining qishloq xo'jaligi texnik salohiyatini belgilovchi omillarning bug'doy hosiliga ta'sirlariga oid tadqiqot ishlaridagi ilmiy-uslubiy natijalarga tayanilganligi, ma'lumotlarning uzoq muddatlilikligi va rasmiy manbalardan olinganligi, hududlar kesimida to'plangan statistik ma'lumotlariga va fermer xo'jaliklaridan olingan so'rovnoma ma'lumotlariga asoslanganligi, taklif va tavsiyalarining amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy-amaliy ahamiyati qishloq xo'jaligini texnik salohiyatini oshirish, fermer xo'jaliklarini o'zlari uchun zarur bo'lgan texnika vositalari hamda asbob-uskunalar sotib olish imkoniyatlarini kengaytirish bilan bog'liq iqtisodiy bilimlarni rivojlantirishga sharoit yaratib berishi bilan belgilanadi. Dissertatsiya ishida ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalarni amaliyotga joriy etish fermer xo'jaliklarida ishlab chiqarish jarayonlarini texnik jihatdan yangilash, ularni moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, iqtisodiy imkoniyatlarini oshirish yo'llarini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotning amaliy ahamiyati qishloq xo'jaligida mahsulot ishlab chiqarish jarayonida sarf-xarajatlarini kamaytirish va pirovard natijada qishloq xo'jaligi korxonalari iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda o'z ifodasini topadi.

Dissertatsiya ishida olib borilgan ilmiy-tadqiqotlarning natijalaridan qishloq xo'jaligida texnik salohiyatdan foydalanish samaradorligini oshirishga qaratilgan

Davlat dasturlarini ishlab chiqish hamda oliy o'quv yurtlarida "Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti", "Qishloq xo'jalik ishlab chiqarish iqtisodiyoti" fanlarining o'quv dasturlarini takomillashtirish va o'qitishda keng foydalanilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarning joriy qilinishi. Qishloq xo'jaligi texnik salohiyatining bug'doy hosiliga ta'sirini iqtisodiy baholash bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

"texnik salohiyat" tushunchasining ta'rifida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishda texnika vositalarining turlari, ularning soni, sifati, eskirish hamda texnika bilan ta'minlanganlik darajasi kabi ko'rsatkichlarni hisobga olgan holda texnika vositalaridan maksimal darajada foydalanish imkoniyatini ifodalovchi iqtisodiy mazmuni asosida takomillashtirilgan taklifi oliy o'quv yurtlarining o'quv jarayonida, 61010400 – Turizm (agroturizm) ta'lim yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan "Qishloq xo'jalik ishlab chiqarish iqtisodiyoti" darsligida foydalanilgan (Toshkent davlat agrar universitetining 2025-yil 4-iyundagi 1-9-6/139-son buyrug'i). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida talabalarning qishloq xo'jaligi texnik salohiyati tushunchasi mazmunini kengroq tushinishi orqali bilim va ko'nikmalarni oshirishga imkon beradi;

fermer xo'jaliklarida bug'doy hosiliga texnik salohiyatning ta'sirlarini iqtisodiy baholash bo'yicha uslubiy yondashuv viloyat tumanlarida Jizzax viloyati qishloq xo'jaligi boshqarmasi tomonidan amaliyotga joriy etilgan (Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2026-yil 17-martdagi 05/04-04-280-son ma'lumotnomasi). Natijada, Do'stlik va Arnasoy tumanlari fermer xo'jaliklarida texnik salohiyatning bug'doy hosiliga bevosita ta'siri 0,704 birlikni tashkil etib, hosildorlikka eng kuchli ta'sir ko'rsatuvchi omil ekanligi, texnika vositalari bilan ta'minlanganlik darajasining texnik salohiyatni ifodalashi 0,688 birlikga tengligi, mehnat resurslaridan foydalanish darajasining texnik salohiyatga ta'siri 0,319 birlikni tashkil etishi aniqlangan;

Jizzax viloyati fermer xo'jaliklarida bug'doy hosiliga ta'sir etuvchi texnik salohiyatni ifodalovchi omillarning ekonometrik modeli asosida bug'doy hosili o'zgarishining 2031-yilgacha prognoz ko'rsatkichlarini aniqlash bo'yicha tavsiyalar Jizzax viloyati qishloq xo'jaligi boshqarmasi tomonidan amaliyotga joriy etilgan (Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2026-yil 17-martdagi 05/04-04-280-son ma'lumotnomasi). Natijada, hududda texnik salohiyat darajasining oshib borishi hisobiga bug'doy yalpi hosili hajmi 2024-yilda 479,8 ming tonnadan 2031-yilga kelib 565,2 ming tonnaga, ya'ni 17,8 foizga oshishi prognoz qilingan;

texnik xizmat ko'rsatuvchi subyektlar hamda fermer xo'jaliklari o'rtasida moliyaviy majburiyatlarni uchinchi tomon (bank) orqali kafolatli tarzda amalga oshirishga asoslangan eskrou (escrow) tizimini joriy etish taklifi ATB "Xalq banki" Do'stlik tumani filiali faoliyatida foydalanilgan (Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2026-yil 17-martdagi 05/04-04-280-son ma'lumotnomasi). Natijada, fermer xo'jaliklarida texnika vositalarining uzluksiz ishlashi ta'minlanadi, texnik xizmat ko'rsatish jarayonlari o'z vaqtida va sifatli amalga oshiriladi, moliyaviy majburiyatlarning bajarilishi kafolatlanib, xizmat ko'rsatuvchi subyektlar bilan o'zaro ishonch mustahkamlanadi hamda agrotexnik tadbirlarning kechikishi natijasida yuzaga keladigan iqtisodiy yo'qotishlar sezilarli darajada qisqaradi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xorijiy va 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokama qilingan va ma'qullangan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya ishi mavzusi bo'yicha jami 14 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish bo'yicha tavsiya etilgan ilmiy nashrlarida 8 ta ilmiy maqola (5 ta respublika va 3 ta xorijiy jurnallarda), ilmiy-amaliy konferensiyalar to'plamlarida 4 ta ma'ruza tezislari chop etilgan. Shuningdek, hammualliflikda 1 ta darslik kitob va 1 ta elektron darsliklar chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, tarkibiga 37 ta statistik, tahliliy, hisob-kitob jadvallari va 23 ta rasm, 1 ta ilovani o'z ichiga olgan holda 121 sahifada bayon etilgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti shakllantirilgan, respublikada fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, ularning amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Qishloq xo'jaligida texnik salohiyat va uni iqtisodiy baholashning nazariy-uslubiy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida texnik salohiyatning mohiyati va nazariy asoslari, qishloq xo'jaligi texnik salohiyatining bug'doy hosiliga ta'sirini iqtisodiy baholashning ilmiy-uslubiy asoslari uslubiy jihatlarini ilmiy asoslangan hamda xorijiy davlatlarda qishloq xo'jaligida texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha ahamiyatga molik tajribalar va mamlakatimizda qo'llash imkoniyatlari yuzasidan ilmiy xulosalar ishlab chiqilgan.

Bugungi kunda mamlakatimiz agrar iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirishda hal etuvchi ahamiyat kasb etadigan muhim ustuvor yo'nalishlardan biri – bu qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalarda modernizatsiya, texnik va texnologik yangilash va resurstejamkor texnologiyalarni joriy etish masalalari muhim ahamiyat kasb qilmoqda.

Ishlab chiqarish jarayonlarini ilmiy asosda tushuntirishda iqtisodiyotning turli tarmoqlari miqyosida salohiyatni shakllantiruvchi asosiy omillar – bu resurslardir. Aynan ushbu resurslar ishlab chiqarishda yetakchi rol o'ynaydi va salohiyatni aniqlash masalasida ahamiyatlilik jihatlarini belgilashda jiddiy muammolar yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Bundan tashqari, agarda muayyan tarixiy bosqichda resurslarning asl mohiyati to'g'risida fikr yuritiladigan bo'linsa, ularning cheklanganligi va yashirin imkoniyatlari sharoitida “salohiyat” atamasini qo'llash zaruriyati paydo bo'ladi.


“Salohiyat” (lot. *“potentia”* – “kuch-qudrat”, “imkoniyat”) – muayyan maqsadga erishish uchun safarbar etilishi mumkin bo'lgan resurslar, vositalar va zaxiralar majmui bo'lib, shaxs, tashkilot yoki davlatning ma'lum bir sohadagi kuch-qudrati va imkoniyatlari darajasini ifodalaydi¹⁵.

¹⁵ Реанович Е.А. Смысловые значения понятия «потенциал» // Международный научно-исследовательский журнал. – 2019. – Т. 2. – № 7. – С. 14-15.

Agrar sohada “salohiyat” tushunchasi XX asrning 70-80-yillarida ilmiy tus olgan, iqtisodiy adabiyotlarda korxona resurs imkoniyatlarini ko‘tarish va amalga oshirish uslubi va amaliyotiga, ularning pirovard natijalarini baholashga, ya’ni salohiyat iqtisodiy mohiyatini bevosita yoki bilvosita ochib beradigan muammolarga katta e’tibor qaratilgan. Jumladan, “iqtisodiy salohiyat”, “sanoat salohiyati”, “agrar salohiyat”, “resurs salohiyati”, “texnik salohiyat” tushunchalari paydo bo‘lgan. Atamalarining bunday katta ro‘yxatining mavjudligi, ularning har biriga yanada batafsil yondashishga asos bo‘ladi.

Resurs salohiyati korxona yoki xo‘jalikning ixtiyorida bo‘lgan va ishlab chiqarish jarayonida iqtisodiy maqsadlarga erishish uchun foydalanilishi mumkin bo‘lgan barcha turdagi resurslarning o‘zaro bog‘liq majmuidir.

“Texnik salohiyat” tushunchasiga ta’rif berishda tadqiqotchi olimlarning qarashlari ham juda xilma-xil. Olimlarning bir qismi, texnik salohiyat – mahsulotning tegishli hajmini ishlab chiqarish, ishlarning muayyan hajmini bajarish qobiliyatiga ega bo‘lgan texnik vositalar yig‘indisidan iborat, deb hisoblasalar, boshqalarning fikricha, salohiyat bu resurslar emas, balki mahsulot ishlab chiqarish maqsadlariga erishish imkoniyatlaridir. Shu bilan birgalikda, qishloq xo‘jaligining texnik salohiyati tarkibida moddiy, mehnat va infratuzilma tarkibiy qismlari muhim rol o‘ynaydi (1-rasm). Uning tarkibidagi elementlar, o‘zaro yaqindan aloqada bo‘lgan holda, texnik, iqtisodiy va ijtimoiy natijaga asoslangan, ishlab chiqarishda texnik salohiyat rivojlanishi va amalga oshirilishi samarasini shakllanishiga imkon beradi.



1-rasm. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi texnik salohiyatining tarkibiy qismlari va elementlari¹⁶

Bizningcha, yuqorida keltirilgan fikrlarni umumlashtirgan holda, bizningcha, “texnik salohiyat” tushunchasining mohiyatiga aniqlik kiritish maqsadga muvofiq. Tahlil natijalarini umumlashtirgan holda, shunday xulosaga kelish mumkinki, qishloq xo‘jaligining texnik salohiyati – bu ishlab chiqarish hajmi va ixtisoslashuvi bilan belgilangan texnik vositalar yig‘indisi bo‘lib, ular mehnat resurslarining ishlab


¹⁶ Muallif tomonidan adabiyotlar tahlili asosida ishlab chiqilgan.

chiqarish imkoniyatlari bilan texnologik bog‘langan hamda yer resurslaridan samarali foydalanish bilan bog‘liq texnologik jarayonlarni bajarish asosida mahsulotning muayyan miqdorini ishlab chiqarish imkoniyatini o‘z ichiga oladi.

Qishloq xo‘jaligining texnik salohiyati – bu mavjud texnika vositalari (traktorlar, kombaynlar, sug‘orish uskunalari, ekish, o‘rish va yig‘ish texnikalari, avtomatlashtirilgan yoki raqamli texnologiyalar) yordamida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini maksimal darajada oshirish imkoniyatini ifodalaydigan salohiyat ko‘rsatkichidir. Ushbu tushuncha ishlab chiqarishda ishtirok etadigan texnika vositalarining turlari, ularning soni, sifati, eskirish hamda texnika bilan ta‘minlanganlik darajasi, ish unumdorligi va boshqa bir qator omillar bilan belgilanadi. Shuningdek, u qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida mavjud texnika vositalari yordamida yetishtirilayotgan qishloq xo‘jaligi ekinlaridan hosil olishda maksimal ishlab chiqarish yoki ushbu resurslardan foydalanish imkoniyatlarini ifodalaydi. Texnik salohiyatni baholash qishloq xo‘jaligida samaradorlikni oshirish, resurslarni tejash va ishlab chiqarish barqarorligini ta‘minlash uchun zarur hisoblanadi.

Qishloq xo‘jaligi texnik salohiyati, xususan, texnika vositalaridan foydalanishning qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirishga ta‘sirini baholash bo‘yicha bundan oldin qilingan ilmiy tadqiqot ishlari, odatda, turli yo‘nalishlarda bir qator usullar orqali bajarilgan. Ularga misol tariqasida, ishlab chiqarish funksiyasi (Kobb-Duglas usuli), DEA (Data Envelopment Analysis) – Ma‘lumotlarni qoplash tahlili usuli, SFA (Stochastic Frontier Analysis) – Stoxastik chegara tahlili usuli va statistik regressiya yo‘nalishidagi usullar orqali baholash mavjud. Agar tadqiqotda yashirin konstruktlar yoki ko‘p bosqichli sabab-oqibat bog‘lanishlari mavjud bo‘lsa, strukturaviy tenglamalar modeli (SEM) qo‘llaniladi.

Ushbu model omillarning bevosita va bilvosita ta‘sirini bir vaqtning o‘zida baholash imkonini beradi. SEM – bu regressiya, korrelyatsiya va faktor tahlillarini bir vaqtning o‘zida birlashtira oladigan keng qamrovli model hisoblanadi. Strukturaviy model yashirin o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi bog‘liqlikni belgilaydi. Agar yashirin o‘zgaruvchi boshqa o‘zgaruvchilarga bog‘liq bo‘lsa, u bog‘liq (dependent), aks holda esa mustaqil (independent) o‘zgaruvchi deb ataladi. Strukturaviy modelda har bir mustaqil yashirin o‘zgaruvchi boshqa o‘zgaruvchilar bilan ko‘p omilli regressiya modeli orqali bog‘lanadi (2-rasm).



2-rasm. Beshta yashirin o‘zgaruvchiga ega strukturaviy modelning yo‘l diagrammasi

Masalan, LVR_1 , LVR_2 , LVR_3 , LVR_4 va LVR_5 uchun regressiya bog‘liqliklari quyidagicha bo‘ladi:

$$\begin{aligned} LVR_1 &= \beta_0 + \beta_1 LVR_2 + \beta_2 LVR_5 + \beta_3 LVR_3 + \varepsilon \\ LVR_5 &= \beta_0 + \beta_4 LVR_3 + \varepsilon \\ LVR_4 &= \beta_0 + \beta_5 LVR_3 + \varepsilon \end{aligned} \quad (1)$$

Shuningdek, omillar o‘rtasidagi sabab-oqibat bog‘lanishlari bevosita va bilvosita ta’sirlar orqali namoyon bo‘ladi. Bevosita ta’sir mustaqil yashirin o‘zgaruvchining natijaviy o‘zgaruvchiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri “yo‘l koeffitsienti” orqali aniqlansa, bilvosita ta’sir oraliq (mediator) konstruktlar orqali yuzaga keladi.

1) Bevosita ta’sir (Direct effect) modeldagi yo‘l koeffitsienti bilan aniqlanadi:

$$DE = \beta_{XY} \quad (2)$$

bu yerda: β_{XY} – X konstrukting Y konstruktiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir koeffitsienti. Bevosita ta’sirning statistik ahamiyati quyidagicha aniqlanadi:

$$p = \frac{\beta}{SE} \quad (3)$$

Agar $p < 0.05$ bo‘lsa, ta’sir statistik jihatdan ahamiyatli deb qabul qilinadi.

2) Bilvosita ta’sir mediator o‘zgaruvchi orqali aniqlanadi. Masalan:

$$X \rightarrow M = \beta_1 \quad M \rightarrow Y = \beta_2 \quad (4)$$

bo‘lsa, unda bilvosita ta’sir quyidagicha hisoblanadi:

$$IE = \beta_1 \times \beta_2 \quad (5)$$

Agar zanjir ko‘p bosqichli bo‘lsa:

$$IE = \beta_1 \times \beta_2 \times \beta_3 \quad (6)$$

Bilvosita ta’sirning statistik ahamiyati ham bevosita ta’sirda bo‘lgani singari (3) formula yordamida tekshiriladi.

Ushbu uslubiy yondashuv strukturaviy tenglamalar modeli (SEM)ning variansga asoslangan PLS-SEM yondashuviga tayangan holda bevosita va bilvosita ta’sirlarni kompleks baholash imkonini beradi. Ushbu yondashuv o‘lchov va strukturaviy modelni bir vaqtning o‘zida baholash, latent konstruktlarni ko‘rsatkichlar asosida aniqlash hamda yo‘l koeffitsientlarining statistik ahamiyatini tekshirishni nazarda tutadi. Yana bir muhim jihati shundaki, u sabab-oqibat bog‘lanishlarini ko‘p bosqichli tarzda tahlil qilish va umumiy ta’sirni miqdoriy ifodalash imkonini beradi.

1-jadval

Xorijiy davlatlarda qishloq xo‘jaligida eskrou tizimi asosida texnik xizmat ko‘rsatish bo‘yicha modellar tavsifi


T/r	Model nomi	Davlat	Faoliyat turi	Qisqacha ishlash mexanizmi
1	Escrow.com platform	AQSh	klassik raqamli moliyaviy eskrou	Platforma xaridor mablag‘ini muzlatib turadi, texnika yetkazilib, uning sifati tasdiqlangach uni sotuvchiga o‘tkazadi.
2	“Hello Tractor”	Nigeriya	tranzaksion eskrou	Fermer SMS/ilova orqali texnik xizmatga buyurtma shakllantiradi; to‘lov masofadan amalga oshiriladi.
3	EM3 Agri Services	Hindiston	bosqichma-bosqich to‘lovli (Milestone)	Fermerlar markazlashgan shoxobchalar orqali texnika buyurtma qiladi va to‘lovlar hosil yig‘imiga moslangan tizim orqali yuritiladi.
4	JA Group Machinery Sharing System	Yaponiya	kooperativ ishonchli eskrou	Kooperativ texnikani sotib olib, fermerlar o‘rtasida reja asosida taqsimlaydi, texnik xizmat kooperativ zimmasida.
5	Machine Hire Centers (MHC)	Meksika	Institutional eskrou	FAO tomonidan qo‘llab-quvvatlangan model: xususiy mulkdorlar texnikalarni ijaraga berib, xizmat ko‘rsatadi. Yillik ijara asosiga moslashtirilgan tizim.

Bugungi kunda xorijiy davlatlarda fermerlarga va qishloq xo‘jaligida mahsulot yetishtiruvchi subyektlarga eskrou tizimi asosida texnik xizmat ko‘rsatish bo‘yicha bir qator modellar mavjud (1-jadval). Xorijiy mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, texnik xizmat ko‘rsatishni samarali tashkil etish ishlab chiqarish uzluksizligini ta‘minlaydi hamda samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. Texnikalarni modernizatsiya qilish bilan bir qatorda texnik xizmat ko‘rsatishni samarali tashkil qilish qishloq xo‘jaligida samaradorlikni oshirishning asosiy sharti hisoblanadi.

Dissertatsiyaning **“Bug‘doy yetishtirish va texnika vositalari bilan ta‘minlanish darajasining tahlili va rivojlanish tendensiyalari”** deb nomlangan ikkinchi bobida bug‘doy yetishtirishning hozirgi holati va tendensiyalari, qishloq xo‘jaligining texnika vositalari bilan ta‘minlanish darajasi va qishloq xo‘jaligi texnik salohiyatining bug‘doy hosiliga ta‘siri etuvchi omillar tahlil qilingan holda ilmiy xulosalar shakllantirilgan.

Qishloq xo‘jaligida bug‘doy eng muhim oziq-ovqat ekinlari hisoblanadi. Dunyo aholisi ozuqa ratsionining asosiy qismini don va don mahsulotlari tashkil etadi. Jahon ekin maydonlarining 14 foizini don ekin maydonlari egallaydi. Dunyo bo‘yicha bug‘doy yetishtirish yiliga 760 million tonnani tashkil etadi. 2030-yilga kelib bu ko‘rsatkich 850 million tonnaga oshirish kutilmoqda. Oziq-ovqat savdosida don mahsulotlari 50 foizni tashkil qiladi. Shunga ko‘ra, jahon bozorida bug‘doy mahsulotiga talab katta. Shu bilan birgalikda, bug‘doy O‘zbekistonda oziq-ovqat kaloriyasining 52 foizdan ortig‘ini ta‘minlaydi.

Ushbu dissertatsiya ishida tadqiqot obyekti sifatida Jizzax viloyati tanlab olindi. Viloyat iqtisodiyotida qishloq xo‘jaligi, xususan, g‘allachilik va paxtachilik tarmoqlari yetakchi o‘rin egallaydi. Ayniqsa, sug‘oriladigan yerlar va lalmi hududlarning mavjudligi qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirishda keng imkoniyatlar yaratadi. Jizzax viloyatida qishloq xo‘jaligida ishlatiladigan umumiy ekin maydoni 504,3 ming gektardan ortiqroq bo‘lib, shundan 259,9 mingdan ziyodroq gektari sug‘oriladigan ekin maydonlari hisobiga to‘g‘ri keladi. 3-rasmdan ko‘rish mumkinki, 2019-2024-yillarda viloyatda jami don ekinlari yalpi hosili 711,3 ming tonnadan 737,1 ming tonnagacha oshib, umumiy barqaror o‘sish tendensiyasini ko‘rsatdi. Bug‘doy yalpi hosili esa 536,8 ming tonnadan 524,1 ming tonnagacha biroz kamaygan.



3-rasm. 2019-2024-yillarda Jizzax viloyatida jami don ekinlari va bug‘doy yalpi hosili¹⁷

¹⁷ Jizzax viloyati Statistika boshqarmasi ma‘lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatdiki, Jizzax viloyatida don va bug'doy ishlab chiqarish ko'rsatkichlari tumanlar kesimida sezilarli tafovutlarga ega. Xususan, Do'stlik tumani yalpi hosil hajmi bo'yicha yetakchi hududlardan biri bo'lib, 2024-yilda 97,6 ming tonna ko'rsatkichga erishgan va o'sish dinamikasi barqaror ijobiy tendensiyani namoyon etgan. Bu hudud intensiv ishlab chiqarish modeli shakllangan tuman sifatida tavsiflanadi. Arnasoy tumani esa tabiiy-iqlim sharoiti nisbatan murakkab bo'lishiga qaramay, yalpi hosil hajmini 79,0 ming tonnadan 83,5 ming tonnagacha oshirgan. Mazkur holat yer resurslaridan samarali foydalanish va texnik omillarning ta'sirini tahlil qilish uchun muhim empirik baza yaratadi. Shu bois, tadqiqot obyekti sifatida ishlab chiqarish hajmi yuqori va intensiv rivojlanish xususiyatiga ega Do'stlik tumani hamda nisbatan murakkab sharoitda faoliyat yurituvchi Arnasoy tumani tanlandi.

2-jadval

Jizzax viloyati qishloq xo'jaligining texnika vositalari bilan ta'minlanish dinamikasi (soni)¹⁸

T/r	Texnika vositalari nomi	2014	2018	2022	2023	2024	2024 yil 2014 yilga nisbatan, % da
1	Haydov traktorlari	243	260	335	431	435	179,01
2	Chopiq traktorlari	1341	1403	1410	1405	1383	103,13
3	Transport traktorlari	643	681	341	850	881	137,01
4	G'alla o'rish kombaynlari	281	294	339	308	322	114,59
5	Don seyalkalari	78	84	88	101	109	139,74
6	Omochlar (pluglar)	243	260	335	431	435	179,01
7	Traktor tirkamalari	1286	1362	1405	1422	1640	127,53
8	Mineral o'g'it sepish mashinalari	213	205	239	235	233	109,39
9	Organik o'g'it sepish mashinalari	259	298	319	317	324	125,09
10	Chizellar	288	338	362	364	366	127,08
11	Boronalar	6478	6863	7594	7593	7484	115,53

Jizzax viloyati qishloq xo'jaligida 2014-2024-yillar davomida texnika vositalari bilan ta'minlanganlik darajasi dinamikasi tahlili hududda agrar tarmoqning texnik salohiyati bosqichma-bosqich mustahkamlanib borayotganini ko'rsatadi (2-jadval). Mazkur davr mobaynida asosiy texnika turlarining aksariyatida o'sish tendensiyasi kuzatilgan. Avvalo, haydov traktorlari soni 2014-yildagi 243 donadan 2024-yilda 435 donaga yetib, 179,01 foizni tashkil etgan. Bu yerga asosiy ishlov berish jarayonlarining mexanizatsiyalash darajasi sezilarli oshganini anglatadi.

3-jadval ma'lumotlari asosida, Jizzax viloyatida 2025-yil holatiga qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining texnika vositalari bilan ta'minlanganlik darajasi me'yoriy talablar asosida tahlil qilindi.

Hisob-kitoblarga ko'ra, mavjud texnika vositalari soni ayrim yo'nalishlarda me'yoriy ehtiyojdan ortiq, ayrimlarida esa yetishmovchilik mavjudligini ko'rsatadi. Avvalo, haydov traktorlari bo'yicha me'yoriy talab 352 donani tashkil etgan bo'lsa, amalda 435 dona mavjud bo'lib, ta'minlanish darajasi 123,4 foizni tashkil etadi. Chopiq traktorlari (113,7 %) va transport traktorlari (108,6 %) bo'yicha ham me'yoriy ehtiyojdan yuqori ko'rsatkich qayd etilgan. G'alla o'rish kombaynlari bo'yicha

¹⁸ Muallif tomonidan Jizzax viloyati qishloq xo'jaligi boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

ta'minlanish darajasi 146,2 foizni tashkil etib, donchilik tarmog'ida texnika vositalari bilan ta'minlanganlik yetarli darajada ekanganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, don seyalkalari bo'yicha ham 211 dona talabga nisbatan 109 dona mavjud bo'lib, 102 dona yetishmovchilik qayd etilgan hamda ta'minlanish darajasi atigi 51,6 foizni tashkil etadi. Boshqa yo'nalishlarda esa sezilarli ortiqcha ta'minlanganlik kuzatiladi. Ayniqsa, boronalar (425,2 %) va chizellar (277,3 %) bo'yicha yuqori ko'rsatkich qayd etilgan bo'lib, bu mazkur texnika turlarining me'yoriy hisob-kitoblariga nisbatan ortiqcha hajmda mavjudligini anglatadi.

3-jadval

Jizzax viloyati qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining texnika vositalari bilan ta'minlanish darajasi¹⁹

T/r	Texnika vositalari nomi	Dolzarb davrdagi ish hajmlari, ga	1000 ga uchun talab, dona	Me'yor bo'yicha talab, dona	2025-yil holatiga mavjud, dona	Ta'minlanish darajasi, foiz
1	Haydov traktorlari	88100	4	352	435	123,4
2	Chopiq traktorlari	67600	18	1217	1383	113,7
3	Transport traktorlari	67600	12	811	881	108,6
4	G'alla kombaynlari	88100	2,5	220	322	146,2
5	Don seyalkalari	44000	4,8	211	109	51,6
6	Omochlar (pluglar)	88100	4	352	435	123,4
7	Traktor tirkamalari	67600	24	1622	1640	101,1
8	Mineral o'g'it sepish mashinalari	88100	2,1	185	233	125,9
9	Organik o'g'it sepish mashinalari	88100	4	352	324	92
10	Chizellar	44000	3	132	366	277,3
11	Boronalar	44000	40	1760	7484	425,2

Qishloq xo'jaligida texnika vositalari bilan ta'minlanganlik darajasi ishlab chiqarish jarayonining samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, zamonaviy texnika vositalaridan foydalanish mehnat va yoqilg'i resurslaridan foydalanish samaradorligini oshiradi. Shu sababli, bug'doy yetishtirish jarayonida eski va yangi texnika vositalaridan foydalanish natijasida yuzaga keladigan ish haqi va yoqilg'i xarajatlari farqi 10 ga maydon misolida tahlil qilindi. Hisob-kitoblarga ko'ra, 10 gektar maydonda bug'doy yetishtirish jarayonida eski va yangi texnika vositalaridan foydalanish natijasida mehnat va yoqilg'i resurslari sarfida sezilarli farqlar kuzatildi. Bunda ishlab chiqarish jarayonining asosiy bosqichlari – ekish davri, vegetatsiya davri va hosilni yig'ish davri bo'yicha ish haqi va yoqilg'i xarajatlari alohida hisoblab chiqildi (4-jadval).

Umumiy olganda, 10 gektar maydonda bug'doy yetishtirish jarayonining barcha bosqichlari bo'yicha jami ishlab chiqarish xarajatlari eski texnika vositalarida 27076,9 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, yangi texnika vositalarida 21519,1 ming so'mni tashkil etib, 5557,8 ming so'mga yoki 20,5 foizga kamaygan. Bu esa zamonaviy texnika vositalaridan foydalanish mehnat va yoqilg'i resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish orqali ishlab chiqarish xarajatlarini sezilarli darajada kamaytirishini ko'rsatadi.

¹⁹ Muallif tomonidan Jizzax viloyati qishloq xo'jaligi boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

10 ga maydonda bug‘doy yetishtirish jarayonida eski va yangi texnika vositalaridan foydalanish bo‘yicha xarajatlar tahlili²⁰

T/r	Ko‘rsatkichlar	Eski texnika vositalari	Yangi texnika vositalari
<i>Ekish davri</i>			
1	Ish haqi, ming so‘m	2054,1	1064,2
2	Yoqilg‘i sarfi, litr	434,9	342,9
3	Yoqilg‘i sarfi, ming so‘m	4783,4	3771,9
Jami (ming so‘m)		6837,4	4836,1
<i>Vegetatsiya davri</i>			
1	Ish haqi, ming so‘m	2347,0	1516,3
2	Yoqilg‘i sarfi, litr	642,0	576,0
3	Yoqilg‘i sarfi, ming so‘m	7061,5	6335,9
Jami (ming so‘m)		9408,5	7852,2
<i>Hosilni yig‘ish davri</i>			
1	Ish haqi, ming so‘m	3543,3	2540,1
2	Yoqilg‘i sarfi, litr	662,5	571,9
3	Yoqilg‘i sarfi, ming so‘m	7287,7	6290,8
Jami (ming so‘m)		10831,0	8830,8
<i>Butun davr uchun</i>			
1	Ish haqi, ming so‘m	7944,4	5120,5
2	Yoqilg‘i sarfi, litr	1739,3	1490,8
3	Yoqilg‘i sarfi, ming so‘m	19132,5	16398,6
Jami (ming so‘m)		27076,9	21519,1

Fermer xo‘jaliklarida texnika vositalari bilan ta‘minlanganlik darajasi hamda ularning samarali foydalanilishi bug‘doy yetishtirish jarayonining iqtisodiy natijalariga sezilarli ta‘sir etishini ko‘rsatadi. Mazkur holatni yanada aniqroq tahlil qilish maqsadida Do‘stlik tumanidagi “Ko‘hna sirlar” va “Zafar” fermer xo‘jaliklari misolida taqqoslama tahlil amalga oshirildi. “Ko‘hna sirlar” fermer xo‘jaligida 1 ga maydonda bug‘doy yetishtirishda yoqilg‘i sarfi 203 litr, mehnat xarajatlari 2565 ming so‘m, hosildorlik 48 s/ga va sof foyda 1464,5 ming so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, “Zafar” fermer xo‘jaligida esa zamonaviy texnikalar qo‘llanilishi natijasida yoqilg‘i sarfi 1 ga maydon uchun o‘rtacha 175 litr, mehnat xarajatlari 2333,2 ming so‘mga tushdi, hosildorlik 57 s/gaga yetgan va sof foyda 3888,8 ming so‘mni tashkil etgan. Bundan kelib chiqadiki, zamonaviy texnika vositalaridan foydalanish agrotexnik tadbirlarning samaradorligini oshirish bilan birga yoqilg‘i va mehnat resurslaridan foydalanishni ham optimallashtiradi. Umuman olganda, tadqiqot natijalari fermer xo‘jaliklarida texnik salohiyat mavjud ekanligini, ammo uning ayrim tarkibiy qismlarida nomutanosibliklar saqlanib qolayotganini ko‘rsatdi.

